

Hukumjonova Sayyora Rohatjon qizi  
[sayyorahukumjonova@gmail.com](mailto:sayyorahukumjonova@gmail.com)  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada ko‘chirma gap va o‘zlashtirma gap sintaksisi, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish masalalari haqida fikrlar bayon qilinadi.

**Annotation:** This article describes the syntax of quotation sentences and possessive sentences, the issues of converting a quotation sentence into a possessive sentence.

**Kalit so‘zlar :** grammatika,sintaksis, gap, ko‘chirma gap, muallif gapi,o‘zlashtirma gap.

**Key words:** grammar, syntax, sentence, reported speech, indirect speech, the author’s speech.

Grammatikaning bir bo‘limi hisoblangan sintaksis yunonchadan olingan bo‘lib, “syntax” – “tuzish”, “biriktirish”, “yopishtirish” degan ma’nolarni anglatadi. Bu bo‘limda bog‘lanish jarayonlarini (sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, grammatick aloqa,garammatik munosabat ) ,shu jarayonda hosil bo‘ladigan til birliklarini – so‘z birikmasi, gap,ularning turlari,xususiyatlarini hamda matnni o‘rganadi. Sintaksis, bir tomonidan, so‘z va so‘z shakllarning,shuningdek, gaplarning aloqa qilish birikish yo’llarini tekshirsa , ikkinchi tomonidan, ma’lum bog‘lanish asosida yuzaga keladigan sintaksis birliklarni o‘rganadi. Sintaksis bo‘limida o‘rganiluvchi til birliklaridan biri hisoblangan gapning ko‘chirma gap turlari haqida fikr yuritamiz.

O‘zgalarning nutqini ifodalashning turli xil yo’llari bor. Shulardan biri ko‘chirma gap hisoblanadi. Bunday gaplarda o‘zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o‘zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. Bunda o‘zganing nutqidagi leksik-grammatik xususiyatlar saqlanadi : uning uslubi, intonatsiyasi, modallik ottenkalari o‘rni, tartibi va boshqalar. Gapda muallif nutqi asosiy rol o‘ynaydi, chunki avtor o‘zga nutqining qanday, qay holatda, qachon, qanday sabablar bilan aytilganligini ko‘rsatib turadi. Demak, avtor nutqi bilan ko‘chirma gap birgalikda qo’llanadi. Ko‘chirma gap o‘zbek adabiy tilida juda keng qo’llaniladi, chunki u kommunikativ funksiyani bajarib, kishilar kollektivining aloqa qilish qurolidir. Ko‘chirma gapda avtorning o‘zi emas, so‘zlovchi suhbatdoshiga o‘z so‘zlar bilan bevosita murojaat qiladi.Bunda u birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari, fe’llar, undov so‘zlar buyruq mayli shakllaridan va boshqa vositalardan foydalanadi.<sup>7</sup>

Ko‘chirma gap va muallif gapi birgalikda ko‘chirma gapli qo‘shma gapni hosil qiladi. Muallif gapining kesimi dedi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zladi, aytdi kabi fe’llar bilan ifodalanadi. Ko‘chirma gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning Ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin : “Mehnat ishtaha ochar” , - deydi bobom. Cho‘pondan so‘radik: “Bu qo‘ylar kimning qo‘yi?” “Men , -dedi u, -ertaga kelaman”. Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan : - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo‘q, - dedi. O‘zgalarning shakli o‘zgartirilib, mazmuni iofodalangan gapi o‘zlashtirma gap deyiladi. O‘zlashtirma gap ko‘chirma gapga aylantirilishi mumkin bo‘lgan gapdir: Qurbon

<sup>7</sup> G‘.Abdurahmonov,A.Sulaymonov,X.Xoliyorov,J.Omomturdiyev- Qo’llanma.Toshkent,”O‘qituvchi”-1979

ota ertaga kelishini aytdi(o'zlashtirma gap) – Qurbon ota dedi: "Men ertaga kelaman"(ko'chirma gap) . So'roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi. -Bu qanday bino, nimaga mo'ljallaysiz? – dedi O'ktam - O'ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo'ljallanishini so'radi. Undalma , kirish so'z qatnashgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so'zlar tushib qoladi,undalma vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi, 1-2- shaxslarni ko'rsatuvchi so'zlar 3-shaxsga aylantiriladi:- Xo'sh Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? -so'radi O'ktam.

-Men ketdim,

dedi ukasi. Bu gap ko'chirma gap hisoblanadi.

O'ktam Kanizakxon dan

qanday yangiliklar borligini so'radi. Ukasi o'zining ketayotganini aytdi. Bu esa o'zlashtirma gap.<sup>8</sup>

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, bir necha garammatik o'zgarishlar ro'y beradi. Avvalo, ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gap shaklini oladi. Ko'chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi. II shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalangan ega, I shaxs kishilik olmoshiga aylantiriladi. Ustozimiz: "Sizlar hur O'zbekistonning kelajagi porloq yoshlarisiz " – dedilar. Ustozimiz bizning hur O'zbekistonning kelajagi porloq yoshlari ekanligimizni aytdilar. Ko'chirma gap tarkibida undov yoki kirish so'zlar bo'lsa tushirib qoldiriladi.Undalma esa chiqish kelishigidagi to'ldiruvchiga aylanadi. Nozima dugonasiga : "Dugonajon, bugun sen ham kutubxonaga borasanmi?" - deb so'radi. Nozima dugonasidan bugun kutubxonaga borish yoki bormasligini so'radi. So'roq va buyruq gaplar darak gapga aylanadi. Ko'chirma gapning kesimi harakat nomi , sifatdosh yoki -lik, ekanlik shakllaridagi vositasiz to'ldiruvchiga aylanadi. " Bugun darsga ikki o'quvchi kelmadi", - dedi sinf sardorimiz. Sinf sardorimiz bugun darsga ikki o'quvchi kelmaganligini aytdi. Undov gap, atov, ritorik so'roq gap kabilarni o'lashtirma gapga aylantirib bo'lmaydi. "Eh hozirgi yoshlari, hozirgi yoshlari!", - deya bosh silkidi bobom. Ko'chirma gaplar qanchalik murakkab tuzilgan bo'lsa, uni o'zlashtirma gapga aylantirish shunchalik qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'zlashtirma gapga aylantirishda grammatik o'zgarishlar ro'y bersa-da, uning mazmuni o'zgarib ketmasdan saqlanib qolishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Dotsent Nazarova. S "Hozirgi o'zbek adabiy tili(Sintaksis)" fanidan Ma'ruza matnlari Buxoro- 2014.

2. M. Hamroyev. Ona tili- Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma-Toshkent "Iqtisod-moliya".2007.

3.G'.Abdurahmonov,A.Sulaymonov,X.Xoliyorov,J.Omomturdiyev Qo'llanma. Toshkent,"O'qituvchi" 1979.

<sup>8</sup> M. Hamroyev. Ona tili- Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma-Toshkent "Iqtisod- moliya".2007